



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

TUZKON MAKONLARI XRONOLOGIYASI MASALALARI

Axmadaliyeva Ra'noxon O'rinboy qizi
Farg'ona davlat texnika universiteti, assistent

Annotatsiya

Ushbu maqolada Tuzkon makonlarining xronologiyasi, ularning tarixiy davrlarga mansubligi hamda arxeologik tadqiqotlar natijalari tahlil qilinadi. Tuzkon hududida olib borilgan qazilmalar orqali topilgan moddiy madaniyat namunalari asosida bu makonlarning paydo bo'lish davri va rivojlanish bosqichlari aniqlanadi. Shuningdek, mazkur makonlarning Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni va qadimgi aholi turmush tarzini o'rganishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari Tuzkon hududining qadimgi davr tarixini yanada aniqroq yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tuzkon makonlari, xronologiya, arxeologiya, qadimgi davr, Markaziy Osiyo, moddiy madaniyat, tarixiy davrlar, arxeologik qazilmalar.

ПРОБЛЕМЫ ХРОНОЛОГИИ СТОЯНОК ТУЗКОН

Ахмадалиева Раънохон Уринбой кизи
Ферганский государственный технический университет, ассистент

Аннотация

В данной работе рассматриваются вопросы хронологии памятников Тузконского региона, их принадлежность к различным историческим периодам и результаты археологических исследований. На основе анализа археологических находок и материальной культуры определяется время возникновения и этапы развития данных поселений. Также освещается значение памятников Тузкона для изучения истории Центральной Азии и образа жизни древнего населения. Результаты исследования позволяют более точно определить место Тузконских памятников в древней истории региона.

Ключевые слова: памятники Тузкона, хронология, археология, древний период, Центральная Азия, материальная культура, исторические эпохи, археологические раскопки.

ISSUES OF THE CHRONOLOGY OF TUZKON SITES

Akhmadaliyeva Ra'nokhon O'rinboy qizi
Fergana State Technical University, Assistant

Abstract

This article examines the chronological issues of the Tuzkon sites, their belonging to different historical periods, and the results of archaeological research conducted in the region. Based on archaeological findings and material culture, the period of emergence and stages of development of these sites are determined. The study also highlights the importance of Tuzkon sites in understanding the ancient history of Central Asia and the lifestyle of early populations. The research findings contribute to a clearer understanding of the historical chronology of the Tuzkon region.

Keywords: Tuzkon sites, chronology, archaeology, ancient period, Central Asia, material culture, historical stages, archaeological excavations.

Arxeologiya fanida yodgorliklarning xronologiyasini aniqlash muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u hududning qadimgi tarixiy jarayonlarini qayta tiklash, madaniy qatlamlarning shakllanish bosqichlarini aniqlash hamda insoniyat taraqqiyotining evolyutsion yo'nalishlarini o'rganishda asosiy metodologik vositalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Tuzkon makonlari xronologiyasini aniqlash masalasi Markaziy Osiyo arxeologiyasida dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tuzkon hududi o'zining tabiiy-geografik sharoiti, qadimgi aholi manzilgohlari va madaniy qatlamlarining boyligi bilan ajralib turadi. Bu yerda aniqlangan arxeologik topilmalar, mehnat qurollari, keramika namunalari hamda boshqa moddiy madaniyat yodgorliklari hududda uzoq davrlar davomida inson faoliyati uzluksiz bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq mazkur makonlarning aniq xronologik chegaralarini belgilash, ularni tarixiy davrlar bilan bog'lash hamda madaniy qatlamlarning ketma-ketligini aniqlash masalalari hanuzgacha yetarli darajada tizimli o'rganilmagan.

Zamonaviy arxeologik tadqiqotlarda xronologiyani aniqlashda stratigrafik tahlil, radiokarbon

datalash, tipologik solishtirish va boshqa ilmiy metodlardan keng foydalanilmoqda. Shu bilan birga, turli metodlarning natijalarini kompleks tarzda tahlil qilish zarurati ushbu yo'nalishda yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Tuzkon makonlari misolida bu metodlarning qo'llanilishi hududning tarixiy rivojlanish bosqichlarini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, Tuzkon makonlari xronologiyasini aniqlash orqali nafaqat mahalliy tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash, balki Markaziy Osiyo hududida qadimgi madaniyatlarining o'zaro aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa umumjahon arxeologiya fanining rivojiga ham muhim hissa qo'shadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kaltaminor madaniyati yodgorliklari ancha keng hududlarga tarqalgan. Unga G'arbiy Qozog'iston — Unda, Sagiz, Emba, Irgiz va To'rg'ay daryolari havzalari; janubda esa Orolbo'yining shimoliy-sharqi, Sirdaryoning quyi oqimi, deyarli butun Qizilqum hududi, Amudaryoning quyi va o'rta oqimi hamda Qoraqumning katta qismi kiradi. A.V. Vinogradov Kaltaminor madaniyatini o'rganar ekan, uni ikkita bosqichga — ilk va so'nggi davrlarga ajratgan [1]. Uning ta'kidlashicha, ilk Kaltaminorning tosh industriyasi aniq ifodalangan mikrolitoid ko'rinishga ega va bu, avvalo, kamon o'qlarida, kalta tig'li, yonlari assimetrik kerkikli va asosi qiyalashtirilgan uchburchak plastinkalarda, uchlari to'g'ri ishlov berilmagan, uchli va yelkasi o'tmaslashtirilgan qadama qurollarda, yonlari keng assimetrik kerkikli plastinalarda, plastinalardan ishlangan tor va uzun bigizlarda namoyon bo'ladi. Ayrim geometrik qurollar — mayda simmetrik trapetsiyalar ham uchraydi.

Qolgan shakllardan yuqqa plastinkalardan ishlangan parmalagichlar, ko'ndalang qirg'ichchalar, uchirindilardan ishlangan qirg'ichchalar, ko'plab turli-tuman retushli pichoqsimon plastinalar, bir yuzali prizmatik yoki kesilgan konus shaklli nukleuslar, baliqchilik qarmoqtoshlari, yorg'uchoqlar uchraydi. Ilk Kaltaminor komplekslarida plastinkalardan ishlangan o'qlardan tashqari, ba'zan bifasial ishlangan tig'lar ham uchraydi va ular odatda bargsimon, yumaloq yoki uchi kerkikli shakllarga ega. Ta'kidlash joizki, ilk kaltaminorliklar so'nggi Kaltaminor uchun xos bo'lgan barcha toshga ishlov berish usullaridan xabardor bo'lishgan.

So'nggi Kaltaminorning tosh inventari ko'p jihatdan eski mikrolitoid an'analarni davom ettiradi. Makonlar inventarlarida Kaltaminor tipidagi o'qlar, yelkasi o'tmaslashtirilgan qadama qurollar, kerkikli plastinalar hali ko'p uchraydi. Ammo ba'zi jihatlari bilan ular ilk bosqichdagi o'xshash buyumlardan farq qiladi. Uchirindilardan ishlangan qirg'ichchalar soni va tiplari ko'payadi. Ikki yoqlama ishlov berilgan o'qlar yanada rivojlanadi, uchburchaksimon va rombsimon tig'lar paydo bo'ladi. Bargsimon, uchlari kerkikli tig'lar ustunlik qiladi.

So'nggi Kaltaminor uchun mikrolit bo'lmagan ikkita yangi qurol tipi paydo bo'ladi. Bular yirik uchirindilardan ishlangan, bo'yi 15 sm ga yetadigan bifasial ishlov berilgan irg'itiladigan va oddiy nayzalar hamda plastinalardan yoki uchirindilardan ishlangan, ish qirrasini qayrilgan, keng, uchlari o'tkir yoki yumaloq, hajmlari o'rtacha 8–10 sm bo'lgan pichoqlardir [1].

Barcha parametrlariga ko'ra, Tuzkon makonlari Kaltaminorning ilk bosqichlariga oidligini ko'rsatadi. Ilk Kaltaminorning xronologiyasiga asoslangan holda Darbozaqir makoni 3-qatlamini miloddan avvalgi IV ming yillik oxirlari yoki III ming yillik boshlari bilan sanalash mumkin. Negaki 3-qatlamda devorlari to'liq naqshlar bilan qoplangan idishlar og'iz qismining tag qismigina yoki yuqori qismigina naqshlangan idishlardan ko'ra ikki marta ko'p uchraydi. Bundan tashqari, 3-qatlamda, asosan, to'liqsimon-tasmasimon chiziqlar va chizma naqshlar uchraydi va bu ilk Kaltaminor bosqichiga xosdir. 2-qatlamda to'liqsimon naqshlar bilan birga o'yama naqshinkorlik paydo bo'ladiki, bu so'nggi Kaltaminor bosqichining belgisi hisoblanadi. Naqshlarning tikligi va murakkabligi zaiflashadi, ko'pincha tayoqcha yordamida bosma naqshlar uchraydi. Shuning uchun yodgorlikning ikkinchi qatlamini miloddan avvalgi III ming yillikning birinchi yarmi bilan sanalash mumkin. Yuqori qatlamda tayoqcha yordamida bosma naqshlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun qatlamni miloddan avvalgi III ming yillikning o'rtalari bilan sanalash mumkin.

Ko'p qatlamli Darbozaqir makonining xronologiyasiga asoslanib, Mohandaryoning qolgan yodgorliklari ham sanalangan. Darbozaqir II makonidan 921 ta tosh buyum topilgan. Tosh qurollari orasida ko'ndalang qirg'ichchalar, assimetrik shaklli randalar, parmalagichlar, segmentlar va boshqalar uchraydi hamda ular ilk Kaltaminor bosqichi bilan sanalangan Darbozaqir I makonining 3-qatlami [2], Jonbos [3] va Kunak I [4] makonlarining materiallariga o'xshashdir. Alohida ta'kidlash joizki, mezolitda paydo bo'ladigan segmentlar so'nggi neolit davriga kelib yo'qolib ketadi. Darbozaqir II makoni kremniyli inventarida so'nggi bosqichlarga oid elementlar yo'q. Uning barcha elementlari ilk Kaltaminorga oid hisoblanadi.

Natijalar va muhokama. Tuzkon makonlari xronologiyasini aniqlash Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini, xususan, insoniyatning dastlabki yashash bosqichlari va madaniy rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu makonlar asosan mezolit va neolit davrlariga oid bo'lib, ularning davriy chegaralarini aniqlash arxeologik topilmalar, stratigrafik qatlamlar hamda zamonaviy ilmiy usullar asosida amalga oshiriladi.

Tuzkon hududida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, makonlarning shakllanishi va rivojlanishi bir necha bosqichda kechgan. Dastlabki bosqichlarda ovchilik va termachilik ustun bo'lgan bo'lsa, keyingi davrlarda asta-sekin ishlab chiqaruvchi xo'jalik elementlari — dehqonchilik va chorvachilik paydo bo'la boshlagan. Bu esa insoniyatning turmush tarzida tub o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi.

Xronologik muammolar, asosan, quyidagi omillar bilan bog'liq:

- arxeologik qatlamlarning aralashib ketishi;
- topilmalarning yetishmasligi yoki ularning yaxshi saqlanmaganligi;
- turli hududlar o'rtasida madaniy o'xshashlik va farqlarning murakkabligi;
- aniq sanalash usullarining cheklanganligi.

Shu bilan birga, radiokarbon (C14) usuli, tipologik tahlil va solishtirma-tarixiy metodlar yordamida Tuzkon makonlarining taxminiy davrlashtirish tizimi ishlab chiqilgan [5]. Bu tizim ularning mezolitdan neolitga o'tish jarayonini aks ettiradi.

Tuzkon makonlari xronologiyasini o'rganish nafaqat mintaqaviy tarixni aniqlashtirish, balki insoniyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida yangi arxeologik qazishmalar, zamonaviy texnologiyalar, masalan, geoarxeologiya, DNK tahlillari va fanlararo yondashuvlar ushbu muammoni yanada aniqroq va mukammalroq hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Tuzkon makonlarining xronologiyasini aniqlash jarayoni ko'p bosqichli va murakkab ilmiy tahlilni talab etishini ko'rsatdi. Olib borilgan arxeologik kuzatuvlar, stratigrafik qatlamlar tahlili hamda topilmalar tipologiyasi asosida hududda inson faoliyati turli tarixiy davrlar davomida bosqichma-bosqich rivojlanganligi aniqlandi. Ayniqsa, turli qatlamlarda uchraydigan mehnat qurollari, sopol buyumlar va boshqa moddiy madaniyat elementlari madaniy evolyutsiyaning uzluksizligini tasdiqlaydi.

Tuzkon makonlari bir vaqtning o'zida bir nechta madaniy bosqichlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, bu hududning uzoq vaqt davomida yashash uchun qulay muhit bo'lganligini anglatadi. Ayrim qatlamlarda topilgan artefaktlar boshqa hududlardagi o'xshash topilmalar bilan qiyoslanganda, ular o'rtasida madaniy aloqalar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi [6]. Bu esa Tuzkon hududining qadimgi davrlarda mintaqaviy madaniy almashinuv jarayonlarida faol ishtirok etganligini taxmin qilish imkonini beradi.

Xronologik chegaralarni belgilashda faqat stratigrafik yoki tipologik metodlarga tayanish yetarli emas. Ba'zi hollarda qatlamlarning buzilishi, aralashuvi yoki tabiiy omillar ta'sirida stratigrafik tartibning o'zgarishi natijalarni murakkablashtiradi. Shu sababli radiokarbon datalash, laboratoriya tahlillari va boshqa zamonaviy ilmiy metodlarni qo'llash zarurati yuzaga keladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ayrim xronologik tafovutlar va qarama-qarshiliklar mavjudligi kuzatildi. Bu esa ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarda metodologik yondashuvlarning turlicha bo'lishi bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, Tuzkon makonlari xronologiyasini aniqlashda kompleks va integratsiyalashgan yondashuvni qo'llash eng samarali usul ekanligi asoslandi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Tuzkon makonlarining xronologiyasi nafaqat mahalliy tarixiy jarayonlarni, balki Markaziy Osiyodagi umumiy madaniy rivojlanish tendensiyalarini tushunishda ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu hududda aniqlangan topilmalar asosida qadimgi jamiyatlarning xo'jalik faoliyati, ijtimoiy tuzilishi va madaniy aloqalari haqida yangi ilmiy xulosalar chiqarish mumkin.

Umuman olganda, natijalar va muhokama shuni ko'rsatadiki, Tuzkon makonlarining xronologiyasini aniqlashda turli ilmiy metodlarni uyg'unlashtirish, mavjud ilmiy qarashlarni qayta ko'rib chiqish hamda yangi arxeologik ma'lumotlar asosida tadqiqotlarni davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tuzkon makonlarining xronologiyasini aniqlash masalasi arxeologik izlanishlarning muhim va murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'rganishlar davomida ushbu hududda aniqlangan moddiy madaniyat yodgorliklari, stratigrafik qatlamlar va topilmalar tizimli tahlil qilinib, ularning tarixiy davrlar bilan bog'liqligi muayyan darajada aniqlashtirildi.

Tuzkon makonlarida inson faoliyati uzluksiz yoki bosqichma-bosqich davom etgan bo'lib, bu hudud qadimgi davrlardan boshlab muhim yashash va xo'jalik markazlaridan biri bo'lgan. Stratigrafik va

tipologik tahlillar asosida madaniy qatlamlarning ketma-ketligi aniqlanib, turli davrlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik hamda rivojlanish dinamikasi ochib berildi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mavjud xronologik tasniflarda ayrim noaniqliklar va qarama-qarshiliklar mavjudligini ham ko'rsatdi. Bu esa zamonaviy ilmiy metodlar, xususan, radiokarbon datalash va kompleks yondashuvlardan kengroq foydalanish zarurligini taqozo etadi. Turli metodlarning uyg'un qo'llanilishi Tuzkon makonlarining xronologik chegaralarini yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Tuzkon makonlarining xronologiyasini o'rganish nafaqat hududiy tarixni chuqurroq anglash, balki Markaziy Osiyo arxeologiyasida madaniy jarayonlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida olib boriladigan arxeologik izlanishlar uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi hamda ushbu yo'nalishda yangi tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Виноградов А. В. К вопросу о южных связях кельтеминарской культуры // *Советская этнография*. – 1957. – № 1. – С. 28.
2. Гулямов Я. Г., Аскарлов А. А., Исламов У. И. *Первобытная культура в низовьях Зарафшана*. – Ташкент: Фан АН УзССР, 1966. – С. 75.
3. Толстов С. П. *Древний Хорезм: опыт историко-археологического исследования*. – Москва: Изд-во АН СССР, 1948. – Табл. 11–16.
4. Виноградов А. В. Раннекельтеминарская стоянка Куняк I // *Краткие сообщения Института этнографии*. – Москва, 1958. – Вып. XXX.
5. Окладников А. П. Пещера Джебел – памятник древней культуры прикаспийских племен Туркмении // *Труды Южно-Туркменской археологической комплексной экспедиции*. – Ашхабад, 1956. – Т. VII. – Рис. 56 (2, 3); 54 (3, 5–7); 51 (1, 2, 4–9); 52 (5–9); 53 (1, 4, 6); 55 (5, 11, 13).
6. Akhmadaliev R. U. A prominent scientist of Uzbekistan in the field of primitive archeology – U. I. Islamov is 90 years old // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. – 2022. – Vol. 12. – No. 7. – P. 26–39.